

## CHET TILLARNI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI IMKONIYATLARI

**Babadjonov Saloxiddin Sobitdjonovich**

p.f.f.d. (PhD) dotsent. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi Qurolli Kuchlarda Axborot Texnologiyalari va Kibervafsizlik kafedrasi professori

**Bilol Ahmad Xon**

Xindiston Qurolli Kuchlar Mutaxassis

---

### A R T I C L E I N F O .

---

**Kalit so'zlar:** chet tillarni o'qitish jarayoni, avtomatik tarjima dasturlari, elektron lug'atlar, tarjimon dasturlar, Promt tarjimon dasturi

### Annotation

---

Maqolada chet tillarni o'qitishni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalaridan, jumladan avtomatik tarjima dasturlari imkoniyatlaridan foydalanish masalalari yoritilgan bo'lib, bu sohada respublikamizda amalga oshirilgan yangiliklarga alohida e'tibor qaratilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

---

Bugungi kunda davlatimiz jahonga yuz tutib o'zini iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatorida ko'rishni istar ekan, bu yo'lida biz yoshlardan talab qilinadigani dunyoning ilm-fan, iqtisodiy, siyosiy, san'at va madaniyat hamda texnikaviy jihatdan yuksak rivojlangan mamlakatlarida to'plangan bilimlarni chuqur o'rganish, mavjud tajribalarni amaliyotga tatbiq etish yo'lidan hech og'ishmasdan ildam qadam tashlashdir. Yosh avlodni bilimli, komil inson va jahon talablariga javob bera oladigan kadrlar qilib tayyorlash hozirgi kunda oldimizga qo'yilgan asosiy maqsadlardandir.

Bu maqsadga erishish uchun, avvalo, yoshlar chet tillarini mukammal bilishlari, kompyuter texnikasi va zamонави texnologiyalarni mustaqil boshqara olishlari lozim.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Ushbu tashabbusning uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga. Yosh avlodning bilimi, dunyoqarashi va intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan muhim qadamdir.

Tarixdan ma'lumki, buyuk ajdodlarimiz va allomalarimiz ko'p tilni o'rganish orqali dunyoviy bilimlar rivojiga munosib hissa qo'shgan. Beruniy, Ibn Sino, Farg'oniy kabi ajdodlarimizning ilmiy, ma'naviy merosi bunga yorqin misoldir.

Binobarin, yosh avlodga chet tillarni o'rgatishdan maqsad ham bir necha xorijiy tillarda erkin so'zlasha oladigan, jahon tsivilizasiyasi yutuqlari va dunyo axborot resurslaridan to'g'ridan to'g'ri foydalanib, xalqaro hamkorlik va muloqotni yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir.

Bugungi kunda jamiyatimiz juda tez rivojlanmoqda va o'zgarmoqda. Zamонави bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'limni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi, globallashuv jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur

---

Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch

etish qiyin. Ulardagi barcha manba va ma`lumotlarning asosiy qismi ingliz va boshqa Yetakchi xorijiy tillarda ifodalangan.

Ma`lumki, chet tilini o`rganuvchilar uchun muhimi so`z boyligi bo`lib, bunda lug`atlarning ahamiyati katta hisoblanadi, biroq ularni doimiy ravishda, olib yurish bir muncha noqulayliklar tug`diradi va ulardan foydalanish ma`lum bir vaqt ni talab etadi. Hozirgi paytda chet tillarini o`rganish jarayonida tarjimon dasturlar, elektron lug`atlardan foydalanish ta`lim jarayonining unumdarligini oshirib, ta`limda yangicha yondashuvni yuzaga keltiradi.

Quyida biz chet tillarni o`qitishni takomillashtirishda avtomatik tarjima dasturlari imkoniyatlaridan foydalanish masalalariga to`xtalmoqchimiz.

CHet tillarni o`qitishda avtomatik tarjima dasturlari, jumladan Google Translate, DeepL, Yandex Translate va Microsoft Translator kabi dasturlar katta imkoniyatlarga ega. Ular til o`rganuvchilar va o`qituvchilar uchun til o`rganish jarayonini ancha Yengillashtirishga yordam beradi. Quyida bu dasturlarning asosiy imkoniyatlari keltirilgan:

### **1. Tezkor va aniq tarjima qilish**

Avtomatik tarjima dasturlari orqali lug`atda so`z qidirish yoki lug`at kitoblari bilan ishslashga vaqt sarflamasdan so`z va iboralarni zudlik bilan tarjima qilish mumkin. Bu o`z navbatida til o`rganuvchilarning yangidan yangi so`zlarni tezroq o`rganishiga yordam beradi.

### **2. Matnni audio formatda tinglash imkoniyati**

Ko`pchilik avtomatik tarjima dasturlari matnni audio formatda o`qib berish funktsiyasiga ega. Bu til o`rganuvchilarga so`zlarning to`g`ri talaffuzini tinglab, mashq qilish imkonini beradi. Shu yo`sinda talabalar talaffuzlarini rivojlantirishlari mumkin.

### **3. Til qoidalarini tushunish va grammatik tuzilishni o`rganish**

Avtomatik tarjima dasturlari o`quvchilarga turli tillardagi so`z va iboralarning grammatik tuzilishini solishtirib o`rganishda foydalidir. Masalan, o`quvchi bir so`zni turli tillarga tarjima qilib, ularning qanday farqli shaklda ifodalishini ko`ra oladi.

### **4. Ko`p tilli so`z boyligini oshirish**

Avtomatik tarjima dasturlari bir vaqtning o`zida bir nechta tilni o`rganuvchi yoki o`qituvchi uchun ham qo`l keladi. Bir so`z yoki iborani turli tillarga tarjima qilish orqali ko`p tilli so`z boyligini oshirish mumkin.

### **5. Yozish va tuzatish bo`yicha yordam**

Ko`plab tarjima dasturlari qo`llangan matnlar va tuzatish funktsiyasiga ega. Ular orqali talabalar o`z yozganlarini to`g`rilashlari, grammatik xatolarni ko`rib chiqishlari mumkin.

### **6. Mobil ilova sifatida qulaylik**

Tarjima dasturlari ko`pincha mobil ilova shaklida ham mavjud bo`lib, talabalarga uquv jarayonida har doim tarjimadan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

### **7. Asl ma`noni tushunish va uni tekshirish imkoniyati**

Biror tildan tarjima qilingan matnni asl ma`nosi bilan solishtirib o`rganish imkoniyati, talaba yoki o`quvchiga bir necha tarjimalarni tahlil qilish imkonini yaratadi. Bu tilni tushunish va izchillikda o`quvchilarning bilimini rivojlantirishga yordam beradi.

Mashina tarjimasi yoki avtomatik tarjima deyilganda bir tildagi matnni ikkinchi bir tilga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter maxsus dasturlari vositasida oldindan tuzilgan algoritm asosida tez vaqt ichida tarjima qilish nazarda tutiladi [1].

Mashina tarjimasining asoschilari muhandis va matematik olimlar bo'lib, keyinchalik bu ishda tilshunoslar ham faol qatnasha boshlagan. Shu tariqa avtomatik tarjima g'oyalari butun dunyoda nazariy va amaliy tilshunoslikning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Demak, shu asosda tilshunoslikning yangi yo'naliishi bo'lgan kompyuter lingvistikasi vujudga keldi.

Zero, zamonaviy axborot texnologiyalari, o'quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida, ta'lim jarayonining sifati va samaradorligi ortishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashuvini, fanlararo aloqalarning chuqurlashuvini kuzatish mumkin [2].

Albatta, chet darslarida tarjima dasturidan foydalanishni o'rgatish jarayonida o'quvchilarga zamon talablariga mos holda fan-texnikaning so'nggi yangiliklaridan foydalangan holda o'rganilayotgan mavzuga oid innovatsiyalar bilan tanishtirib borilishi ularni fanga, mavzuga yanada qiziqtirib, ilm-fanning so'nggi yangiliklaridan boxabar, zamon bilan hamnafas bo'lishlariga, raqobatbardosh kadrlar bo'lib Yetishishlariga zamin yaratadi.

Fan-texnikaning jadal rivojlanishi natijasida tarjimon dasturlar va elektron lug'atlarning on-line, off-line, mobil versiyalari ishlab chiqarilmoqda.

Hozirda dunyo axborot makoni – Internetdan foydalanish kundalik ehtiyoja aylanib bormoqda. CHet tillarni o'qitishda Internet resurslardan foydalanish shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishga xizmat qilib, har bir tahsil oluvchini mustaqil ishlashga o'rgatadi [3].

Xorijiy tillarni o'qitishda Internetning keng imkoniyatlaridan kelib chiqib, onlayn tarjimon dasturlar, onlayn elektron lug'atlardan foydalanishni ko'rgazmali ravishda o'quvchilarga namoyish etish orqali mavzularni Yetarlicha yoritish, talabalarga to'liq ma'lumotlar berish, ularni mavzuga qiziqtirish mumkin.

Masalan, o'zbekchadan ruscha, turkcha, turkmancha, qozoqcha, qirg'izcha, tojikchaga tarjima qilish imkonini beruvchi Onlayn tarjimon va lug'atga ega Translatos.com sayti bilan o'quvchilarni tanishtirish mumkin [9]:

Kompyuterlar va smartfonlar uchun elektron lug'atlar taklif etuvchi lugat.uz saytidan mobil telefonga mobil ilovalarni yuklab olib va ularning o'rganish mumkin [5] :

Ta'kidlash joizki, «Google Translate» on-layn tarjima xizmatida o'zbek tili paydo bo'ldi. Endi bu xizmat orqali o'zbek tilidan boshqa tillarga va boshqa tillardan o'zbek tiliga tarjima qilish imkoniyati mavjud. Hozirda «Google Translate» tillari ro'yxitidagi 90 til orasida o'zbek, tojik va qozoq tillarini ham ko'rish mumkin [7]:

«Yandeks.Perevodchik» matnlar va veb-sahifalarni avtomatik ravishda tarjima qilish xizmati ham endi o'zbek tilidan va o'zbek tiliga tarjima qiladi [8]. «Yandeks»ning tarjima servisi ayni paytda 63 ta tilga, Googleniki esa 90 ta tilga tarjimalarni amalga oshiradi.

Ta'lim jarayonida tarjimon dasturlar imkoniyatlariga to'xtaladigan bo'lsak,

- tarjimon dasturlar nafaqat ingliz tilini, balki boshqa tillarni, xususan rus va boshqa xorijiy tillarini o'rganishda ham asosiy vositalardan hisoblanadi;
- chet tillarni o'rganish, bu jarayonda tarjimon dasturlar imkoniyatlaridan foydalanish yoshlarimizning bilim doirasini yanada kengaytiradi, chet tillarni o'rganishga bo'lган intilishlarini ortiradi va shart-sharoitlar yaratadi;
- milliy ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalanishini ta'minlash kabi muhim masalalarni hal etishni ta'minlaydi.

Albatta, tarjimon dasturlarning kamchiliklari ham mavjud:

- so'zlar avtomatik tarjima jarayonida to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinadi. Shuning uchun tarjimada grammatik qoidalarga deyarli rioya qilinmagan holda amalga oshiriladi;
- avtomatik tarjima qilingan matnni uslub jihatdan tahrirlab chiqish zarur bo'ladi;
- hozirgi mavjud avtomatik tarjima qiluvchi sistemalar so'zlar birikuvini ham deyarli noto'g'ri tarjima qiladi;
- kompyuter dasturlari hozircha 100% to'la va aniq tarjima qila olmaydi, albatta. Lekin tarjima sifati oshib boruvchi dasturlar yaratilish jarayoni davom etmoqda.

Xulosa Avtomatik tarjima dasturlari chet tillarni o'rganish jarayonini Yengillashtiradi, lekin ular har doim ham aniq tarjima qila olmasligi mumkin, chunki tilning ko'p qirraliligi va konteksti tarjimada ba'zan noto'g'ri aks etishi mumkin.

Shunday bo'lsa-da, bu dasturlar til o'rganuvchilar uchun qo'shimcha yordam vositasi sifatida juda foydali hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va Internet resurslar:**

1. Azimov E. G., ІЦукін А. Н. Novy slovar metodicheskix terminov i ponyatiy (teoriya i praktika obucheniya yazkam).- Moskva: Izdatelstvo IKAR, 2009.
2. Begimkulov U.SH. Pedagogik ta`limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, "Fan" nashriyoti, 2007,- 144 b.
3. Kalkova Z.SH. Sovremennye texnologii v prepodavanii inostrannx yazkov // Rol inostrannogo yazka v programme vnedreniya Bolonskogo protsessa v obrazovatelnyu sistemu Kazaxstana: mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferentsiya .-2011.- S.51-52.
4. <http://lex.uz/>
5. <http://lugat.uz/>
6. <http://www.promt.ru/>
7. <https://translate.google.com/>
8. <https://translate.yandex.ru/>
9. <http://translatos.com/>